

**Zokir SODIKOV,**  
*INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF  
UZBEKISTAN, PhD, docent, head of the Department of  
“The Islamic economy and finance, ziyarah tourism”.  
z.sodikov@iiaau.uz. 11, Kadiri, Tashkent, 100011,  
Uzbekistan.*

## **MILLIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI VA UNDA XALQARO TAJRIBANING ROLI**

## **НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА И РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА**

## **DIRECTIONS OF NATIONAL TOURISM DEVELOPMENT AND THE ROLE OF INTERNATIONAL EXPERIENCES**

**Kalit iboralar:** *Milliy turizm, xalqaro tajriba, diversifikatsiya qilish, rivojlantirish, milliy bozor, investitsiyaviy jozibadorlik, viza rejimi, liberallashtirish, xorijiy fuqarolar, turizm sektori, zamonaviy turizm, raqobatbardoshlik, xalqaro standartlar, transport xizmati, turistik mahsulot.*

**Ключевые слова:** *национальный туризм, международный опыт, диверсификация, развитие, национальный рынок, инвестиционная привлекательность, визовый режим, либерализация, иностранные граждане, туристический сектор, современный туризм, конкурентоспособность, международные стандарты, транспортные услуги, туристические продукты.*

**Keywords:** *National tourism, international experience, diversification, development, national market, investment conditions, visa regime, liberalization, foreign citizens, tourism sector, modern tourism, competitiveness, international standards, transport services, tourism products.*

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.** Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan barqaror iqtisodiyotni vujudga keltirish uchun uzoq vaqtdan beri amalga oshirilib kelinayotgan chora-tadbirlar o‘zining natijasini ro‘yobga chiqarmoqda. Xususan, iqtisodiyotimizda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlanganligi, ishlab chiqarishning modernizatsiya qilinayotganligi, tarmoq va sohalarda hamda hududlar izchil rivojlanayotganligi, xalqaro bozor talablariga mos eksport yo‘lga qo‘yilganligi va uning tarkibi davomli takomillashtirilayotganligi, chet el sarmoyasini o‘zlashtirish kuchaytirilganligi va unda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ustuvorlashganligi, real sektor islohotlari chuqurlashayotganligi, shuningdek, xizmat sohasining faollashayotganligi va unda

Mamlakatda turizmni iqtisodiyotning diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, milliy bozorning investitsiyaviy jozibadorligini mustahkamlashga zamin yaratadigan strategik tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirish borasida tadbirlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Shu bois, viza rejimining liberallashtirilishi, xorijiy fuqarolarni ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm sektorini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkoniyatini ta'minlamoqda.

Zamonaviy turizmni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, milliy turizm mahsulotini dunyo bozorida faol va ommaviy tarzda targ'ib qilish maqsadida turizm sohasidagi huquqiy asoslarni mukammallashtirish, turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni implementatsiya qilish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm muhitini yaratish, ichki va tashqi turizm yo'nalishlarini kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, turizm bozorining turli segmentlariga yo'naltirilgan turistik mahsulotlarni va xizmatlarni diversifikatsiya qilish, milliy turizm mahsulotlarini xalqaro va mahalliy turizm bozorlarida targ'ib qilish, mamlakatning sayohat va dam olish uchun xavfsiz sifatidagi imijini mustahkamlash, tarmoq uchun kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirishni eng ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda.

В Узбекистане принимаются меры для развития туризма как одного из стратегических секторов, которые будут способствовать диверсификации экономики, ускоренному развитию регионов, созданию рабочих мест, повышению доходов и уровня жизни населения, и укрепление инвестиционной привлекательности национального рынка. Поэтому либерализация визового режима, упрощение процедуры регистрации иностранных граждан, предоставление льгот и преференций для развития туристического сектора дают возможность эффективно продвигать национальный туристический потенциал на внутреннем и внешнем рынках.

Совершенствование нормативно-правовой базы в сфере туризма с целью создания благоприятных условий для развития современного туризма, повышения конкурентоспособности и качества услуг, продвижения национальных туристических продуктов на мировом рынке придает приоритетное значение внедрению международных норм и стандартов, ориентированных на создание благоприятных условий для развития туризма, развитие туристической инфраструктуры и создание благоприятной туристической среды, расширение маршрутов внутри страны и за рубежом, улучшение транспортных услуг, диверсификация туристических продуктов и услуг в различных сегментах туристического рынка, продвижение национальных туристических продуктов на международных и местных туристических рынках, укрепление имиджа страны как безопасного места для путешествий и отдыха, совершенствование системы подготовки, переподготовки квалифицированных кадров для сектора.

Measures are constantly being taken so as to develop tourism in the country as one of the strategic sectors that will contribute to the diversification of the economy, accelerated development of the regions, job creation, rise in incomes and living standards of the population, and improvement business conditions in the national market. Therefore, liberalization of the visa regime, simplification of the registration procedure for foreigners, provision of privileges and preferences for the development of the tourism sector provide the opportunity to effectively promote the national tourism potential in the domestic and foreign markets.

The prior task is to create favorable conditions for the development of modern tourism, to improve the quality and competitiveness of services, to promote national touristic products, to facilitate the legal framework and hence, to implement the international standards, to develop the infrastructure, to train qualified staff, to diversify the tour-products and to form the country's touristic profile as a safe destination for travel and leisure.

turizm sektorini rivojlantirishga alohida urg'u berilayotganligi beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa, bu borada olib borilayotgan faoliyatlarni yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga murojaatnomasida "Sakkizinchidan, turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks choralar ko'rishimiz lozim" alohida ta'kidlab o'tilgan [11; 39 b.]. Shuningdek, mazkur jarayonning davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni [5] qabul qilindi. Bular turizm sektorini rivojlantirish va uning milliy iqtisodiyotdagi rolini oshirish borasida muntazam tadqiqotlar olib borish kerakligini tasdiqlaydi. Shu bois, ushbu tadqiqot

ana shu jihatlari bilan bugungi kunda dolzarb bo'lgan vazifaga qaratilgan hisoblanadi.

**Muammoning qo'yilishi.** Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tashqi savdoni diversifikatsiya qilish, milliy xo'jalik tarmoqlari va hududlarini muttasil rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda esa strategik tarmoq sifatida turizm sektorini taraqqiy ettirish uchun keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilishi talab etiladi. Xususan, bu borada yaratilayotgan sharoitlar va jarayon bilan bog'liq qulayliklar, turizmni rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalarning berilishi milliy turizm salohiyatini oshirishga zamin yaratadi. Demak, muammo mahalliy va xorijiy bozorlarda mamlakatimizning

milliy turizm salohiyatini samarali tashviqot qilish hamda mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish yo'lini ko'rsatishdir.

**Tadqiqot maqsadi.** Jahon iqtisodiyotida global-lashuvning avj olishi milliy iqtisodiyotlarni ichki va tashqi bozorlarda barcha imkoniyatlardan samarali foydalanishga yo'naltirmoqda hamda ko'plab sohalarining rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Ana shunday sohalar-dan biri o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab rivojlana boshlagan bu turizm sektori bo'lib, ushbu tarmoq bu-gungi kunda global miqyosda shiddat bilan yuksalib, aksariyat milliy bozorlarni o'z ta'sir doirasiga qamrab olmoqda va ularga ijtimoiy-iqtisodiy manfaat keltir-moqda. Shu bois mazkur tadqiqotning maqsadi turizm sektorining xalqaro hamjamiyatga keltirayotgan mu-vaffaqiyatlarini asoslash va O'zbekiston uchun ham bunday yutuqlarni qo'lga kiritishga omil bo'ladigan jihatlardan borasida to'xtalib o'tishdan iboratdir.

**Tadqiqot metodlari.** ilmiy abstraktsiya, tahlil, sintez, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, induksiya, deduksiya, taqqoslash, statistik va boshqa metodlar-dan foydalanildi.

**Asosiy natijalar.** Bugungi kunda mamlakatimiz-da barqaror va samarali iqtisodiyotni barpo qilish maqsadida istiqloldan beri amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar o'zining hosilini bermoqda. Xususan, qisqa muddat mobaynida milliy iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o'sishga erishilgani, ishlab chiqarishning uzluksiz modernizatsiya qilinishi ta'minlanganligi, tarmoq va sohalarda uzluksiz rivojlanishning yo'lga qo'yil-gani, jahon bozori talablariga mos keladigan samarali tashqi savdo, xususan, eksport tarkibini diversifikat-siya qilinganligi va unda texnologik jihatdan chuqur qayta ishlangan mahsulotlar hajmining ortganligi, xo-rijiy investitsiyalarni o'zlashtirish kuchaytirilganligi va unda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar salmog'ining ko'payishiga erishilganligi, milliy bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashga va kuchaytirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni izchil rivojlantirishga erishilganligi, real sektor to'liq isloh qilinayotganligi va unda xizmat sektorlarini rivojlantirishga alohida urg'u berilayotganligi beqiyos yutuq va ahamiyatli natijalar hisoblanadi [22; 19 b.].

Vaholanki, hozirda nafaqat mamlakatimizda, balki, butun jahonda eng ustuvor rivojlanayotgan so-halardan biriga aylangan turizm sektori taraqqiyo-ti milliy iqtisodiyotlar uchun o'ta muhim yo'nalish bo'lmoqda. Mazkur imkoniyatdan unumli foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlan-tirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2019-yil 5-yanvar, PF-5611-son) farmoni va bosh-qqa huquqiy-tashkiliy asoslar yaratilib, jadal faoli-yat yo'lga qo'yildi. Jumladan, ushbu farmonning

1-ilovasida mamlakatimizda "2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlanti-rish **KONSEPSIYASI**" tasdiqlanib, ijro qilish uchun amaliyotga kiritilgani ham olib borilayotgan faoliyat-niing miqyosini ko'rsatadi [5].

Respublikada milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish tizimini modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarini yanada rivo-jlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining daromadlarini oshirish orqali turmush darajasini yax-shilash, investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan bo'lmish turizm sektorini taraqqiy ettirish borasida kompleks tadbirlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Jumladan, yarati-layotgan sharoit sifatida viza rejimining liberallashti-rilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiya kabilarning berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlar-da samarali targ'ib qilishga hamda imkoniyatlarining yuksalishiga asos bo'lmoqda. Bu yo'nalishdagi cho-ra-tadbirlar dastavval taraqqiy etgan mamlakatlarda avj olgan bo'lsa, hozirgi kunda jahondagi aksariyat davlatlar uchun amaliy hayot tarziga aylangan. Chunki taraqqiyot uchun shart - sharoitlar yaratish va mavjud salohiyatdan eng yuqori samarada foydalanish ijtimoiy - iqtisodiy yuksalishning tayanchi hisoblanadi [15].

Global miqyosda XX asrning ikkinchi yarmi-dan keyin rivojlana boshlagan turizm sektori hozirda xalqaro darajada yanada kengroq quloqch yoyib kun sa-yin yuksalib bormoqda. Bu muvaffaqiyatning eng aso-siy omillaridan birinchisi jahon miqyosida oshib bo-rayotgan aholi farovonligi, keyingisi kishilarda mehnat ta'tiliga chiqib, hordiq olish uchun turizm faoliyatida ishtirok etish ishtiyoqining bugungi kunda inson tur-mush tarziga, hatto muayyan farovonlik darajasi uchun ehtiyojga aylanganidir. Ko'pchilik mamlakatlarda 30-40 yil muqaddam insonlarning aksariyati uchun ta'til tushunchasi faqat muayyan ijtimoiy-iqtisodiy toifaga taalluqli "xo'jako'rsin" tarzidagi mashg'ulot sifatida qabul qilingan bo'lsa, bugungi kundagi insonlarning ta'tilsiz hayot tarzini qabul qilishi uyoqda tursin, uni xayol qilishi ham tasavvurga sig'maydi. Chorak yoki uzog'i bilan yarim asrdan iborat qisqa vaqt mobayni-da ko'z bilan ko'rsa bo'ladigan darajaga chiqqan bu tafovut, ta'tilga chiqish yoki hordiq chiqarish ehtiyoji kishilarning bugungi kunda turizmga munosobatlari qay darajada ahamiyat kasb etayotganligini yaqqol tasdiqlamoqda. Bundan tashqari, mamlakatlarning ichidagi va xalqaro miqyosdagi turizm statistikasi bu jarayonlarning ko'lamini aniq raqamlar asosida so'zsiz isbotlab bermoqda. Hozirgi kunda turizm faoliyatlarida ishtirok etishning kishilar uchun ehtiyojga aylanishi jahonda kuchli darajada turizm talabini va muayyan iqtisodiy tizimning vujudga kelishiga zamin yaratdi.

**1-jadval. Jahonda mahalliy va xalqaro turizmda ishtirok etgan sayyohlar [24; 40-44 b.] 2016-yilda**

| №  | Turizm yo'nalishlari                                   | mlrd. kishi | Jahon aholisiga nisbati, foizda |
|----|--------------------------------------------------------|-------------|---------------------------------|
| 1. | Mamlakatlarda ichki turizmda ishtirok etgan kishilar   | 5,5         | 73%                             |
| 2. | Mamlakatlarda xalqaro turizmda ishtirok etgan kishilar | 1,186       | 16%                             |

Bu ehtiyojlarga hozirda o'zgargan turist profili va uning moyilligi mos kengayib, aks sado berishga harakat qilayotgan turizm sektori muttasil ravishda jahonning zabt qilish mumkin bo'lgan barcha makonlarida imkon qadar ko'proq insonlarga xizmat ko'rsatish salohiyatiga erishmoqda. Xalqaro miqyosda turizm bo'yicha global yetakchi mavqeyiga ega bo'lgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Jahon Turizm Tashkiloti (BMTJTT – UNWTO – United Nations World Tourism Organization) ning so'ngi yillardagi statistik ma'lumotlariga binoan bugungi kunda xalqaro turizm faoliyatlarida ishtirok etayotgan kishilar salmog'i 1950-yillarda 25 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, bu raqam 1980-yillarda 278 mln. kishiga, 2000-yillarda 674 mln. kishiga, 2015-yilda esa 1 mlrd. 186 mln. kishiga [24; 48-51b.] yetgan. 2015-yilda o'z mamlakatidan boshqa mamalatlarga ta'til o'tkazib, hordiq chiqarishga borgan insonlar soni qariyb 1,2 mlrd. kishidan tashkil topgan turistlar jamoasidan iborat.

Mazkur turizm faoliyatlari sababli ular 1 trln. 260 mlrd. AQSh \$ darajasida mablag' xarajat qilgan. UNWTO ning prognozlariga ko'ra 2030-yilga borib butun dunyo miqyosida xalqaro turizm harakatlarida ishtirok etadigan turistlar sonining 1,8 mlrd. kishiga yetishi taxmin qilinmoqda. Jahon mamlakatlarida ichki turizm jarayonlarida ishtirok etayotgan sayyohlar adadi 5 - 6 mlrd. kishi atrofida ekanligi taxmin qilinmoqda [24; 59 - 65 b.]. Joriy vaqtdagi global statistik ma'lumot e'lon qilinadigan "Worldometers" statistikasining 2017-yilda bergan ma'lumotiga binoan yer yuzida yashaydigan aholi 7,5 mlrd. kishidan iborat bo'lgan. Bu raqamni UNWTO statistikasi bilan taqqoslaganda 2015-yilda yer yuzida yashaydigan har 100 kishidan eng kami 73 tasi mamlakat ichida va eng kamida 16 tasi xorijiy mamlakatdagi turizm faoliyatida ishtirok etganligi ma'lum bo'lmoqda. Keltirilgan statistik ma'lumotlar turizm jarayoniga ishtirok etishning global miqyosda qanchalik ommaviylashganligini raqamlar orqali tasavvur qilish mumkin. Bundan tashqari, ayni paytda esa UNWTO statistik ma'lumotlariga binoan, jahon miqyosida amalga oshirilgan eksportning 7%i yoki 1,5 trln. \$i turizm sektori hissasiga to'g'ri kelmoqda, jahondagi har 11 ish o'rnidan bittasi turizm bilan bog'liq

bo'lmoqda va jahon yalpi ichki mahsulotining 10 %i turizm faoliyati keltirib chiqargan iqtisodiy samara natijasida hosil bo'lmoqda [24; 45-59 b.].

**2-jadval. Jahonda turistlarni qabul qilish bo'yicha top 10 talik reytingi – 2015, [24; 4-19 b.].**

| №  | Mamlakat        | Qabul qilingan turist soni (mln. kishi) | Aholi (mln. kishi) | Aholiga nisbati % |
|----|-----------------|-----------------------------------------|--------------------|-------------------|
| 1  | Fransiya        | 84,5                                    | 67,1               | 126 %             |
| 2  | AQSh            | 77,5                                    | 325,7              | 24 %              |
| 3  | Ispaniya        | 68,2                                    | 46,6               | 146 %             |
| 4  | Xitoy           | 56,9                                    | 1386,4             | 4 %               |
| 5  | Italiya         | 50,7                                    | 60,6               | 84 %              |
| 6  | Turkiya         | 39,5                                    | 80,7               | 49 %              |
| 7  | Germaniya       | 35,0                                    | 82,7               | 42 %              |
| 8  | Buyuk Britaniya | 34,4                                    | 66,0               | 52 %              |
| 9  | Meksika         | 32,1                                    | 129,2              | 25 %              |
| 10 | Rossiya         | 31,3                                    | 144,5              | 22 %              |

UNWTO ma'lumotlariga ko'ra 2000-yildan beri jahonda eng ko'p turist qabul qilgan top 10 ta mamlakat va turizmdan eng ko'p daromad olgan dastlabki 10 ta mamlakat qatorida joy olgan milliy bozorlar sanoqli hisoblanadi. Shular qatorida joy olganlardan birinchisi Fransiya bo'lib, qolganlari jadvalda keltirilgan tartib bilan ro'yxat qilingan, jumladan, AQSh, Ispaniya, Xitoy, Italiya, Turkiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Meksika, Rossiya kabilar o'z reytingini 2015-yilda ham saqlab qolgan holda, Fransiya 84,5 mln. dan ortiq turist qabul qilgan va jahonda eng ko'p turist qabul qilgan 1-mamlakat bo'lgan.

Ayni paytda bu turizm faoliyatlaridan eng ko'p daromad olib 1-mamlakat darajasiga AQSh erishgan bo'lib, uning daromadi 204,5 mlrd. AQSh \$ga teng, 2-mamlakat 114,1 mlrd. AQSh \$ bilan Xitoy, 3-mamlakat 56,5 mlrd. AQSh \$ bilan Ispaniya, 45,9 mlrd. AQSh \$ bilan eng ko'p daromad olgan 4-mamlakat darajasiga erishgan Fransiya bo'lsa, Buyuk Britaniya 45,5 mlrd. AQSh \$ bilan 5-mamlakat, Tayland 44,6 mlrd. AQSh \$ bilan 6-mamlakat, Italiya 39,4 mlrd. AQSh \$ bilan 7-mamlakat, Germaniya 36,9 mlrd. AQSh \$ bilan 8-mamlakat, Gong-Kong 36,2 mlrd. AQSh \$ bilan 9-mamlakat, Makao (Xitoy) 31,3 mlrd. AQSh \$ bilan 10-mamlakat reytingini qo'lga kiritgan [24; 15-39 b.]. Mazkur turizm sektorining milliy iqtisodiyotga qo'shgan hissasini jahon va Yevropa o'rtachalarini taqqoslash asosida ham ko'rish mumkin. Turizm sektorining milliy iqtisodiyotga qo'shgan hissasiga baho berish borasida to'rtta asosiy parametr inobatga olinadi.

**3-jadval. Jahonda turizmdan olingan daromadlar bo'yicha top 10 talik reytingi – 2015 [24; 14-25 b.].**

| Mamlakat reytingi № | Mamlakat | mlrd. \$ | YaIM mlrd. \$ | YaIM nisbati % |
|---------------------|----------|----------|---------------|----------------|
| 1                   | AQSh     | 204,5    | 18980,3       | 1,1 %          |

|    |                 |       |         |               |
|----|-----------------|-------|---------|---------------|
| 2  | Xitoy           | 114,1 | 12042,9 | 0,9 %         |
| 3  | Ispaniya        | 56,5  | 1265,9  | 4,5 %         |
| 4  | Fransiya        | 45,9  | 2548,3  | 1,8 %         |
| 5  | Buyuk Britaniya | 45,5  | 2675,9  | 1,7 %         |
| 6  | Tayland         | 44,6  | 411,7   | <b>10,8 %</b> |
| 7  | Italiya         | 39,4  | 1878,3  | 2,1 %         |
| 8  | Germaniya       | 36,9  | 3596,6  | 1,0 %         |
| 9  | Gong-Kong       | 36,2  | 342,3   | <b>10,6 %</b> |
| 10 | Makao (Xitoy)   | 31,3  | 39,9    | 78,5 %        |

Bu mezonlar jahon o'rtachasida ham, mamlakatlari yoki hududlar o'rtachasida ham asos sifatida qabul qilinadi. U parametrlar quyidagilardan iborat bo'lib, birinchisi, turizm sektorining yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi bo'lsa, ikkinchisi, aholi bandligidagi ulushi, uchinchisi, eksport salohiyati va nihoyat to'rtinchisi mazkur sektorga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmidan kelib chiqmoqda. Turizm faoliyati borasida xalqaro mavqega ega bo'lgan tashkiliy tuzilmalardan yana biri, bu **“Jahon Sayyohlik va Turizm Kengashi (JSTK)”** (JSTK – WTTC – World Travel & Tourism Council) ning 2017-yildagi iqtisodiy samara hisobotiga binoan o'ziga xos vaziyatlar mavjudligi ma'lum bo'lmoqda. Ular quyida keltirilgan jadvallarda o'z aksini topgan. Turizm sektorining yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi bo'yicha Italiya 207,6 mlrd. \$ bilan jahonda 8-o'rinni egallagan bo'lsa, Ispaniya 177, 2 mlrd. \$ bilan 9-o'rinni, Turkiya 88 mlrd.\$ bilan 14-o'rinni, Yunoniston 29-o'rinni, Misr 46-o'rinni, Marokash 48-o'rinni va boshqalari salohiyatiga ko'ra o'rinni egallamoqda. Bu borada jahon o'rtachasi esa 57,3 mlrd. \$ ni tashkil etmoqda [24; 25-44 b.]. Bundan Italiya, Ispaniya, Turkiya mamlakatlari turizm sektorining milliy iqtisodiyotda muhim samaraga ega ekanligini, shuningdek, bu sektorning ushbu mamlakatlarda salmog'i jahon o'rtachasidan ancha yuqoriligi xulosa qilinishi mumkin.

**4-jadval. Turizm sektorining Yalpi ichki mahsulot (YIM)ga qo'shgan hissasi bo'yicha mamlakatlar reytingi – 2016 [25; 10-19 b.].**

| Mamlakat reytingi № | Mamlakat         | Mrld.\$ | Aholi mln. kishi | Y a I M Mrld.\$ |
|---------------------|------------------|---------|------------------|-----------------|
| 8                   | Italiya          | 207,6   | 60,6             | 1878,3          |
| 9                   | Ispaniya         | 177,2   | 46,6             | 1265,9          |
| 14                  | Turkiya          | 88,0    | 80,7             | 882,9           |
| -                   | Jahon o'rtachasi | 57,3    | 7530,4           | 78050,8         |
| 29                  | Yunoniston       | 36,6    | 10,8             | 194,7           |
| 46                  | Misr             | 19,4    | 97,6             | 293,4           |
| 48                  | Marokash         | 19,0    | 35,7             | 103,9           |
| 64                  | Livan            | 9,2     | 6,1              | 50,5            |
| 76                  | Tunis            | 5,7     | 11,5             | 40,4            |
| 89                  | Kipr oroli       | 4,3     | ..               | ..              |
| 104                 | Malta            | 2,7     | 0,5              | 11,1            |

Prognoz bo'yicha 2027-yilda Turkiyada turizm sektorining YIMga qo'shadigan hissasining 124,5

mlrd. AQSh \$ darajasiga chiqarish mo'ljallangan. Shu shaklda mazkur yo'nalish bo'yicha qator mamlakatlarning turizm sektoridan oladigan daromadlarining ko'lami va xalqaro miqyosdagi o'rni jadvalda aks etgan. Milliy iqtisodiyotlarda turizm sektorining bandlikni ta'minlashdagi o'rni va jahon reytingida erishgan yutuqlari o'ziga xos bo'lib, quyidagi jadvalda aks etgan. Keltirilgan jadval ma'lumotiga binoan ishchi kuchi bandligi turizm sektorida Italiyada jami 2,9 mln. kishi, Ispaniyada jami 2,7 mln. kishi va Turkiyada jami 2,2 mln. kishini tashkil etmoqda, bu mamlakatlarning muvaffaqiyati jahon o'rtachasida ancha yuqori natijani qayd qilganligini ko'rsatmoqda.

Bu bandlik salohiyati bilan dunyoning turizm sektorida eng ko'p ishchi kuchi ishlatayotgan 5-mamlakati Italiya, 7-mamlakati Ispaniya va nihoyat 9-mamlakati Turkiya bo'lgan. Boshqa tomondan mazkur davlatlar turizm sektorining band qilish salohiyati ham dunyo, hamda boshqa Yevropa mamlakatlari o'rtachasidan yuqoridir. Shuningdek, mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha Marokash 21-o'rinda, Misr 23-o'rinda, Yunoniston 43-o'rinda va boshqalari o'ziga xos o'rinni qo'lga kiritgan ham bu sektorning rolini isbotlaganlar. Bundan tashqari, e'tiborli jihati Yunoniston turizm sektorida band bo'lgan ishchi kuchi soni bo'yicha reytingda 43-o'rinda bo'lsa ham, bu mamlakat jami ish kuchisining 15-18 foizi aynan ushbu sektorda ish bilan ta'minlanganligi ham muhim jihat hisoblanadi.

**5-jadval. Turizm sektorining bandlikdagi o'rni va mamlakatlarning reytingi –2016 [25; 14-16 b.].**

| Mamlakat reytingi № | Mamlakat         | Sektorda band kishi | Aholi mln. kishi |
|---------------------|------------------|---------------------|------------------|
| 5                   | Italiya          | 2,9 mln.            | 60,6             |
| 7                   | Ispaniya         | 2,7 mln.            | 46,6             |
| 9                   | Turkiya          | 2,2 mln.            | 80,7             |
| -                   | Jahon o'rtachasi | 2,1 mln.            | 7530,4           |
| 21                  | Marokash         | 1,9 mln.            | 35,7             |
| 23                  | Misr             | 1,7 mln.            | 97,6             |
| 43                  | Yunoniston       | 860 ming            | 10,8             |
| 75                  | Tunis            | 430 ming            | 11,5             |
| 83                  | Livan            | 339 ming            | 6,1              |
| 133                 | Kipr oroli       | 81 ming             | ..               |
| 149                 | Malta            | 49 ming             | 0,5              |

Mamlakatlar iqtisodiyotida turizmning ahamiyatini tasdiqlovchi ko'rsatkichlar qatorida eksportdagi salmog'i ham keltiriladi. Chunki har qanday milliy bozor uchun eksport va uni rivojlantirish istiqbollari muhim vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi kunda turizm avj olib borayotgan va jahon hamjamiyatida o'ziga xos tendensiyaga aylanganda undan ulush olmaslik hech bir mamlakatning strategik maqsadlariga to'g'ri kelmaydi. Quyidagi jadval asosida bu boradagi manzaraning tasavvur qilish va mamlakatlar haqida xulosalarga borish mumkin.

Turizm sektorining eksportga qo'shgan hisssasi bo'yicha mamlakatlarning salmog'i yuqoridagi jadvalda 2016-yil holati bo'yicha keltirilgan bo'lib, unda mamlakatlar bo'yicha reytingda 35-o'rinda Livan kelmoqda va uning eksportida turizmning ulushi 32,5% tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Yunonistonda 28,0%, Kiprda 23,8%, Marokashda 22,1%, Ispaniyada 16,1%, Turkiyada 14,2%, Misrda 11,4 %, Tunisda 10,5%, Maltada 9,9 % va jahondagi G-7 lik guruhiga mansub Italiyada 7,5 %ni namoyon qilgan [25; 7-11 b.]. Ayni nisbat uchun jahon o'rtachasi 6,6%, qolgan Yevropa mamlakatlari o'rtachasi esa 7% darajasida bo'lgan. Bu ko'rsatkichlardan yuqorida nomlari keltirilgan mamlakatlarda turizm sektorining eksportga qo'shgan hissasining jahon o'rtachasidan va Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lmagan mamlakatlar o'rtachasidan ancha yuqoriligi kuzatilmoqda.

**6-jadval. Turizm sektorining eksport salohiyati va mamlakat reytingi – 2016 [25; 6-16 b.].**

| Mamlakat reytingi № | Mamlakat         | %     |
|---------------------|------------------|-------|
| 35                  | Livan            | 32,5% |
| 40                  | Yunoniston       | 28,0% |
| 47                  | Kipr             | 23,8% |
| 52                  | Marokash         | 22,1% |
| 69                  | Ispaniya         | 16,1% |
| 73                  | Turkiya          | 14,2% |
| 80                  | Misr             | 11,4% |
| 84                  | Tunis            | 10,5% |
| 90                  | Malta            | 9,9%  |
| 105                 | Italiya          | 7,5%  |
| -                   | Dunyo o'rtachasi | 6,6%  |

Milliy iqtisodiyotga turizm sektorining qo'shgan ulushini isbotlovchi yo'nalishlardan biri, bu tarmoqqa yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi hisoblanadi. Zero, har qanday iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish investitsiya kiritishga tayanadi va u taraqqiyot uchun manba hisoblanadi. Bu boradagi ko'rsatkichlar 2016-yil bo'yicha 7-jadvalda keltirilgan bo'lib, turizm sektoriga qilingan investitsiyaning jahon o'rtachasi 4,4 mlrd. AQSh \$ darajasida ekan, shu yilda yuqori natijalar qayd qilgan mamlakatlar qatorida 17,5 mlrd. AQSh \$ i bilan Turkiyani, 17,2 mlrd. AQSh \$ i bilan Ispaniyani, 10,6 mlrd. AQSh \$ i bilan Italiyani turizm sektoriga katta hajmda investitsiya kiritilgan milliy iqtisodiyotlar sifatida keltirish mumkin [25; 6-16 b.]. Demak, qiymat bo'yicha jahonda turizm sektoriga 2016-yilda eng ko'p investitsiya kiritilgan o'ninchi mamlakat Turkiya, o'n birinchi mamlakat Ispaniya, o'n oltinchi mamlakat esa Italiya bo'lgan.

**7-jadval. Turizm sektoriga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha reyting – 2016 [25; 7-12 b.].**

| №  | Mamlakat | Mrld. \$ |
|----|----------|----------|
| 10 | Turkiya  | 17,5     |
| 11 | Ispaniya | 17,2     |

|     |                  |      |
|-----|------------------|------|
| 16  | Italiya          | 10,6 |
| 29  | Misr             | 4,6  |
| -   | Jahon o'rtachasi | 4,4  |
| 34  | Marokash         | 4,1  |
| 38  | Yunoniston       | 3,5  |
| 62  | Livan            | 1,2  |
| 74  | Tunis            | 0,8  |
| 102 | Kipr             | 0,3  |
| 112 | Malta            | 0,3  |

Shuningdek, jahon o'rtachasidan past bo'lsa-da, Marokash va Yunoniston mamlakatlari ham investitsiyalarni o'zlashtirish borasida jiddiy natijaga erishgan. Shu bois bugungi kunda mamlakatimizda mazkur sektorni rivojlantirishga alohida urg'u berilayotganligi real asosga tayanadi. Xususan, shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2019-yil 5-yanvar, PF-5611-son) farmoni qabul qilinib, unda "2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish KONSEPSIYASI" tasdiqlangan [5]. Bu 2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sektorini rivojlantirish Konsepsiyasining asosiy maqsadi mamlakatda qulay iqtisodiy sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish borasida olib borilayotgan islohotlarning samarasini oshirish hamda sohani jadal rivojlantirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, shuningdek, sektorning milliy iqtisodiyotdagi ulushini va ahamiyatini yuksaltirish, xizmat sektorini zamonaviy talablar darajasida diversifikatsiyalash va ularning sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda milliy turizm infratuzilmasini takomillashtirish orqali mazkur sektorning milliy iqtisodiyotdagi mavqeyini kuchaytirishdan iboratdir. Bunda innovatsion rivojlanishga e'tiborni yanada kuchaytirish va hududlarning salohiyatini koozda tutish maqsadga muvofiq bo'ladi [12].

Mamlakatimiz tabiiy-geografik va iqlim jihatidan qulay shart-sharoitlarga ega mintaqada joylashganligi bois kishilik tarixi davomida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ilmiy-ma'naviy yuksalish yuksak cho'qqilarga erishganligini ko'rish mumkin. Shu bois hozirgi kunda ham O'zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega mamlakat hisoblanib, unda 7,4 ming madaniy meros obyektlari mavjud va ulardan 209 tasi to'rtta muzey shaharlar — "Xiva shahridagi Ichanqal'a", "Buxoro shahrining tarixiy markazi", "Shahrizabz shahrining tarixiy markazi", "Samarqand shahri" hududida joylashgan hamda ular YUNESKO butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan [5].

Davlatimiz tomonidan turizm xizmatlari sektorida olib borilayotgan sa'y-harakatlar natijasida 2010 — 2017-yillar mobaynida uning eksporti hajmi ikki baravarga oshib, 2017-yilda 546,9 mln. AQSh dollari, 2018-yilda esa bu ko'rsatkich — 1041 mln. AQSh dol-

larini tashkil etgan. Mamlakatimizga 2016-yilgacha xorijlik tashrif buyuruvchilarning o'sish sur'ati o'rtacha yillik 8 foizni, 2017-yilda 7 foizni tashkil qilib, 2,69 mln. nafardan oshib ketgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra Respublikaga 2018-yil yakunlari bo'yicha 5,3 mln. xorijiy turistlar tashrif buyurgan. Ayni paytda xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va muhofaza qilishga qaratilgan choralar ko'rilgani bois, 2015-yilda 398 tani tashkil qilgan turizm tashkilotlari soni 2018 - yil yakuniga kelib 950 taga yetgan bo'lsa, mehmonxona xo'jaliklari soni 36 foizga ko'payib 661 tadan 900 taga ko'paygan [5].

Bundan tashqari, oxirgi yillarda mamlakatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilayotgan bo'lib, ular qatoriga Toshkent shahrida "Nyatt Regency Tashkent" va "Lotte City Hotel Tashkent Palace" brendli mehmonxonalar ochilishini, Andijon, Urganch va Toshkent shahrida madaniy-ko'ngilochar bog'larning tashkil etilishini, "Angren-Pop" temir yo'lining ishga tushirilishini, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurur poyezdlar uchun elektrlashtirilgan temir yo'llari faoliyati yo'lga qo'yilishi kabilarini kiritish mumkin [5]. Shuningdek, 2018-yilda kirib kelgan xorijlik turistlar sonining ikki baravarga oshirishga turtki bo'lgan muhim omillar sifatida viza rejimi takomillashuvini, O'zbekistonda bo'lish qoidallari hamda tadbirkorlik faoliyatini olib borish tartibi soddalashtirilganligini, turizm sektorida infratuzilmaning rivojlanayotganligini va turizm salohiyatini targ'ib qilish choralari ko'rilganligini ko'rsatib o'tish mumkin.

Qolaversa bunday sharoitda kichik biznes va uning imkoniyatlaridan unumli foydalanish istiqbolli maqsadga samarali xizmat qiladi hamda muvaffaqiyatli natijalarga zamin hozirlaydi [21]. Shuningdek, qo'shimcha 9 ta, umuman esa 18 ta davlatga nisbatan vizasiz rejim joriy etilgan, fuqarolariga kirish vizalarini berishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilgan davlatlar soni oldin 12 ta bo'lsa, bugunga kelib 50 taga ko'paytirilgan, shuningdek, elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va taqdim etish tizimi faoliyat boshlagan, O'zbekiston hududidan tranzit o'tayotgan 101 davlat fuqarolariga O'zbekistonga vizasiz kirish, vaqtincha bo'lish va fuqarolarni o'tkazish punktlari orqali chiqib ketish tartibi joriy qilingan, xorijiy fuqarolarni respublika hududida vaqtinchalik ro'yxatga olish tartibi soddalashtirilgan va mazkur tartib "E-MEHMON" tizimi orqali to'liq elektron shaklga o'tkazilgan, mehmon uylarini sertifikatlash tartibi bekor qilingan va boshqalar samarali ta'sir ko'rsatmoqda [5].

Darvoqe, respublika hududiga olib kirilayotgan 8 va undan ko'proq yo'lovchi tashishga mo'ljallangan turistik klassdagi avtotransport vositalarini sertifikatlashning yangi mexanizmi joriy etilgani hamda buning

natijasida 2018-yilda turistik klass avtotransport vositalarining parki 47 avtobus va 81 mikroavtobus hisobiga 128 donaga ko'paytirilgani ham chora-tadbirlar mahsuli hisoblanadi[5]. Mamlakatimiz turizm sohasida davlat siyosatining asosiy maqsadi istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirishda ushbu sektorni yetakchilik qilishiga, mahalliy dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechishga va yangi ish o'rinlarini ko'paytirishga, hududlarning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tizimlarini diversifikatsiya qilishga, aholining daromadlarini oshirish bilan birga yashash darajasi va sifatini yaxshilashga hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imijini yuksaltirishga yo'naltirilgan.

Mamlakatimizda turizm sektorini rivojlantirishning asosiy maqsadlari va bosqichlari aniq qilib belgilangan bo'lib, unga binoan 2019 — 2025-yillarda turizm sektorini milliy iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va ularning sifatini oshirish hamda turistik infratuzilmani, shuningdek, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va samarali reklama-marketing faoliyatlarini olib borish orqali takomillashtirish natijasida ko'rsatilgan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishdan iboratligi ko'zda tutilgan.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2019-yil 5-yanvar, PF-5611-son) farmoniga binoan turizm sektorini rivojlantirishning asosiy bosqichlari belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan tashkil topmoqda. Jumladan, avvalo, 2019 — 2020-yillarda — sektorni rivojlantirish uchun mustahkam qonunchilik bazasini yaratishga qaratilgan institutsional islohotlar, infratuzilmani modernizatsiyalash va mamlakat brendini targ'ib qilish mo'ljallangan bo'lsa, undan keyin, 2021 — 2025-yillar mobaynida — mamlakat iqtisodiyotida turizm industriyasi ulushini ko'paytirish ko'zda tutilgan [5]. Bu yo'nalishda O'zbekistonda zarur infratuzilmani rivojlantirish va dunyo bozorida respublikaning turizm salohiyatini targ'ib qilish orqali mamlakatning yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 5 foizgacha yetkazish rejalashtirilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2017-yilda 2,3%ni tashkil etgan, shuningdek, 2025-yil yakunigacha turistlar sonini 9 mln. kishidan oshirish va uning 2 mln. kishidan ortig'i uzoq xorijliklardan tashkil topishi kerakligi belgilab qo'yilgan [5]. Bu muvaffaqiyatlar natijasida uzoq istiqbolda O'zbekiston turizmi milliy iqtisodiyotdagi yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan, Markaziy Osiyo mintaqasida va hatto, dunyo turistik xizmatlari bozoriga eng raqobatbardosh davlatlar qatorida kirib borishi mumkin bo'ladi.

Buning uchun turizm sektori bilan bog'liq qisqa muddatli istiqbolga mo'ljallangan maqsadli vazifa va

ustuvorliklardan kelib chiqib, qator asosiy yoʻnalishlar boʻyicha tadbirlarni faol amalga oshirish koʻzda tutilgan. Jumladan, turistik faoliyat sohasi bilan bogʻliq normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va sohani rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro meʼyor va standartlarni joriy etish talab qilinadi, xususan, turistik faoliyatni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish, asosiy turistik oqimni taʼminlovchi, iqtisodiy barqaror va xavfsiz davlatlarning fuqarolari uchun viza rejimini yanada liberallashtirish borasida izchil tadbirlarni amalga oshirish, xususiy sektorni jalb qilish va tadbirkorlar faolligini ragʻbatlantirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va keng qoʻllab-quvvatlash muhim hisoblanadi. Zero, mamlakatda mazkur sohaning normativ - huquqiy bazasini xalqaro standartlar va meʼyorlar bilan uygʻunlashtirish, uni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, iqtisodiyotda turizm sektorining rolini kuchaytirish uchun resurslardan samarali foydalanish ushbu sohaning eksport salohiyatini keskin oshirishni taʼminlaydi.

Bundan tashqari, turistlarning ehtiyojlari va talablarini inobatga olgan holda, mamlakatning barcha hududlarida turizm infratuzilmasi va yondosh infratuzilmani rivojlantirish, mehmonxonalar va boshqa turizm infratuzilmasi obyektlarini qurishga oid loyihalarini amalga oshirish mexanizmini soddalashtirish, tadbirkorlarga oʻz xizmatlarining sifatini oshirish uchun qoʻshimcha shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, jahonga mashhur mehmonxona biznesi brendlarini Oʻzbekistonga jalb qilishni ragʻbatlantirish, joylashtirish vositalarini bosqichma - bosqich rivojlantirish, yirik, oʻrta, kichik mehmonxonalar va xostellarni qurishni ragʻbatlantirish hamda mavjud mehmonxonalarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, zamonaviy xalqaro standartlarni hisobga olgan holda koʻcha infratuzilmalarini va turizm-rekreatsioon markazlarini barpo qilish, turizm navigatsiyasining yagona unifikatsiyalashtirilgan tizimini joriy etish va rivojlantirish, koʻchalarda, hududlarda, turizm namoyishi obyekti hisoblangan bino va inshootlar ichida, transport vositalari va tarmoqlarida hamda avtomobil yoʻllarida turizm navigatsiyasining unifikatsiyalashtirilgan koʻrsatkichlarini oʻrnatish maqsadga muvofiq boʻladi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR:** Mulohazalardan kelib chiqib xulosa qilinadigan boʻlsa, bular turizm xizmatlarining sifati, xilma-xilligi va eksport hajmining oʻsishiga, jahon bozorining yirik brendlarini jalb qilishga va xorijiy investitsiyalar oqimini koʻpaytirishga zamin hozirlaydi. Ayni paytda transport logistikasini rivojlantirish, tashqi va ichki yoʻnalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, turizm bozorining turli qatlamlariga moʻljallangan turistik mahsulotlar va xizmatlarni diversifikatsiya qilish orqali mav-

sumiy omillar taʼsirini kamaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, bir nechta turizm turlarini birlashtirish hamda turli-tuman tadbirlar bilan boyitish orqali taklif etiladigan turistik jarayonlarning jozibadorligini oshirish, mamlakat boʻylab turistik turlarining oʻrtacha davomiyligini oshirish natijasida turizmning barqaror rivojlanishi va sayyohlarning mamlakatimizga takroriy tashriflari taʼminlanadi.

Xususan, milliy turistik mahsulotni ichki va tashqi bozorlarga taklif qilish, uni sayohat va dam olish uchun xavfsiz mamlakat sifatida imijini mustahkamlash, yagona milliy turizm brendini hamda unga asosan har bir hududning oʻziga xos xususiyatidan kelib chiqib, hududlarning turizm brendlarini yaratish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, xizmat koʻrsatuvchi xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish mazkur yoʻnalishdagi ehtiyojlarni taʼminlashga asos boʻladi.

#### ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari toʻgʻrisida»gi Qonuni 30.04.1998.
2. Oʻzbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat toʻgʻrisida»gi Qonuni 26.05.2000.
3. Oʻzbekiston Respublikasining Turizm toʻgʻrisidagi qonuni, 2019-yil 18-iyul,
4. OʻRQ-549-son. (Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 19.07.2019-y., 03/19/549/3446-son)
5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Oʻzbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi (2019-yil 5-yanvar, PF-5611-son) farmoni.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi farmoni (2017-yil 7-fevral, PF-4947-son): –T.: Adolat, 2018. –112 b.
7. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratiya Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: «Oʻzbekiston», 2016. –56 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. –T.: Oʻzbekiston, 2017.
9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: «Oʻzbekiston», 2017. – 488 b.
10. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Parlamentga Murojaatnomasi. 22.12.2017. – Toshkent: «Oʻzbekiston», 2018. – 80 b.
11. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Parlamentga Murojaatnomasi. 28.12.2018. – Toshkent: «Oʻzbekiston», 2019. – 64 b.
12. Batirova N. S. Theoretical aspects of the innovative development of the region //science and education: problems and innovations. – 2019. – C. 120-124.
13. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xadjibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: Darslik. – T.: Baktria, 2015. – 584 b.

14. Vaxabov A.V., Xadjibakiev Sh.X., Mo'minov N.G. Xorijiy investitsiyalar: O'quv qo'llanma. –T.: Moliya, 2010.–328 b.
15. Isadjanov A. THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS: PRIORITY DIRECTIONS AND ACTUAL TASKS //The Light of Islam. – 2018. – T. 2018. – №. 1. – C. 20.
16. To'xliiev N., Abdullayeva T. Natsionalniye modeli razvitiya turizma. Ucheb. posobiye. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» DIN, 2006. – 423 b.
17. To'xliiev N., Abdullayeva T. Ekologicheskiy turizm: sushnost, tendensii i strategiya razvitiya. Ucheb. posobiye. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» DIN, 2006. – 415 s.
18. To'xliiev N. O'zbek modeli: taraqqiyot tamoyillari. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” DIN, 2014. – 264 b.
19. To'xliiev N. Osiyo taraqqiyot modeli. – T.: “O'zbekiston”, 2015. – 176 bet.
20. To'xliiev N., Haqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: “O'zbekiston”, 2018. – 488 b.
21. Sadiqova, Ra'no (2018) «FOREIGN PRACTICE OF FORMING COMPETITIVE ENVIRONMENT IN SMALL BUSINESS,» The Light of Islam: Vol. 2018 : Iss. 1 , Article 21. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iiu/vol2018/iss1/21>
22. Sodiqov Z.R. Bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirishni chuqurlashtirish yo'nalishlari. T.: O'zbekiston, 2011. -72 b.
23. Sodiqov Z.R. Milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi. O'quv qo'llanma. –T.: “Complex Print”, 2019. -88 b.
24. UNWTO Annual Report 2016. the World Tourism Organization (UNWTO), Madrid, Spain. 2017. p. 118.
25. WTTC - World Travel & Tourism Council, TRAVEL & TOURISM GLOBAL ECONOMIC IMPACT & TRENDS 2019. London, United Kingdom. 2019. P. 20.
26. [www.unwto.org](http://www.unwto.org).
27. [www.wtto.org](http://www.wtto.org).
28. [www. Stat.uz](http://www.Stat.uz).

